

BIZNES AXBOROT BAZASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI PROGNOZLASH METODOLOGIYASI.

Norov Murod Maxmudovich

Qarshi davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda biznes axborot bazasining rivojlanish istiqbollari va mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini prognozlash metodologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida axborot bazasining samarali tashkil etilishi va kengaytirilishi biznes jarayonlarini optimallashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va raqamli xizmatlar bozorining o'sish istiqbollarini aniqlashga xizmat qilishi ko'rsatildi. Shuningdek, raqamli xizmatlar bozorini prognozlashda matematik modellardan, statistik metodlardan va big data tahlil vositalaridan foydalanish amaliy jihatdan baholanadi. Tadqiqot natijalari mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish, investitsiya samaradorligini oshirish va biznes axborot bazalarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: biznes axborot bazasi, raqamli xizmatlar bozori, prognozlash metodologiyasi, raqamli transformatsiya, statistik tahlil, big data, investitsiya samaradorligi, strategik boshqaruv, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi mintaqa sanoati va biznes faoliyatida innovatsion o'zgarishlarni rag'batlantirmoqda. Raqamli xizmatlar bozori kengayishi bilan birga, biznes jarayonlarini samarali boshqarish va raqamli xizmatlar bozorining o'sish istiqbollarini aniqlashda biznes axborot bazalarining ahamiyati ortib bormoqda. Biznes axborot bazasi raqamli xizmatlar bozorini prognozlash, strategik qarorlar qabul qilish va investitsiya samaradorligini oshirish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bozorni prognozlash metodologiyasi matematik modellash, statistik tahlil va big data texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli xizmatlar bozorining rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi biznes axborot bazasining rivojlanish istiqbollarini o'rganish, raqamli xizmatlar bozorini prognozlash metodologiyasini ishlab chiqish va mintaqa sanoatida raqamli transformatsiyani samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Hozirgi kunda barcha sohalarda axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Mintaqalarda raqamli sanoat sektorlarini rivojlantirish va foydalanuvchanligini oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xop endi



ushbu sanoat tuzilmasini raqamlashtirish jarayonlarini dasturlashtirish va uni dasturiy ta'minotini ishlab chiqib, dasturiy ta'minot orqali natijalarga erishish biz olib borayotgan tadqiqotni asosiy maqsadini va vazifasini belgilab beradi. Savol tug'iladi dasturiy ta'minot bizga qanday qulayliklar va imkoniyatlarni yaratib beradi. Demak, mintaqalarda sanoat tuzilmalarini raqamlashtirish ishlab chiqaruvchilar va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanuvchilar uchun ham juda katta imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu imkoniyatlarning ayrimlari haqida biroz to'xtalib o'tsak. Sanoat sohasi shunday sohaki barcha mintaqalarda e'tibor katta, shuning uchun ushbu sohani axborot texnologiyalari bilan bog'lamaslikning iloji yuqdir. Barcha turdagi ishlab chiqariladigan sanoat maxsulotlari haqida ma'lumot olish imkoniyati hozrgi kunda muhim hisoblanadi chunki, bu imoniyatlar ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar uchun ortiqcha vaqt va xarajatlarning sarflanishini oldini oladi. Shuningdek turli sanoat korxonalari tamonidan ishlab chiqarilgan to'liq bo'lmagan maxsulotlarni ma'lum bir qismlarini tizimga joylagan xolda boshqa sanoat korxonalari bilan maxsulotlar almashishlari va sotish hamda sotib olish imkoniyatlari mavjuddir. Dasturiy vositani bosh sahifasida tizimdan foydalnuvchilar uchun inaktiv xizmatlarni taqdim qiluvchi ma'lum bir xizmatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan quyida keltiriladigan dasturiy vosita ham mintaq Sanoatdada raqamli xizmatlarni rivojlantirish mexanizmini ma'lum bir qismida axborot texnologiyalari orqali viloyatning ishlab chiqarish jarayonlarni avtomatlashishiga yordam beradi. Ushbu dasturiy vositani asosiy vazifalaridan biri minataqalardagi sanoat sektorlarida ishlab chiqariladigan barcha turdagi maxsulotlari haqida markazlashgan ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatlari mavjuddir. Dasturiy vositasi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilar:

- ❖ Bosh sahifa
- ❖ Sanoat tuzilmasi (kategoriyalari)
- ❖ Sanoat tuzilmasini hududiy aniqlash
- ❖ Sanoat korxonalarida risklarni baholash
- ❖ Bog'lanish (xizmat ko'rsatuvchilar bilan)
- ❖ Ro'yxatdan o'tish
- ❖ Kirish (tizimdan foydalanishda)

Sanoat tuzilmasi dasturiy vositaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan kotegoriyalarda sanoat tizimining ajralmas qismlaridan bo'lgan, o'rmon xo'jaligi, yog'och va qog'oz Sanoatda, kimyo va neftkimyo Sanoatda, mashinasozlik va metal ishlatish, og'ir sanoat, yengil sanoat, oziq ovqat Sanoatda kabilardan tshkil topgan. O'rmon xo'jaligi, yog'och va qog'oz Sanoatda: Ushbu yo'nalish yer yuzi yaralgandan buyon paydo bo'lgan, ayniqsa konstruktiv materiallarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar eng qadimgi sanoat tizimlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu sanoatdan insoniyat yashash tarzi uchun yuqori ehtiyojlar bilan foydalanib kelmoqdalar. Ya'ni har turdagi yog'och maxsulotlarini tayyorlash,

yog'ochlarga istalgan tarzda ishlovlar berish kabi ishlarni amalga oshirmoqdalar bularning deyarli barchasiga hozirgi kunda xar xil turdagi texnologiyalarni qo'llanilishini nazarda tutishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan texnologiya va usullardan foydalangan xolda yaratilgan maxsulotlarni ushbu dasturiy vosita yordamida foydalanuvchilarga taqdim qilish imkoniyati mavjud bo'ladi va foydalanuvchilar ham o'z navbatida dasturdan foydalangan xolda yangi yaratilayotgan yog'och Sanoatda maxsulotlari haqida yangiliklar va tayyor holatdagi maxsulotlardan xabardor bo'lib boorish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qog'oz Sanoatda ham hozirda keng qamrovli maxsulotlardan xisoblanadi. Shunday ekan qozoz Sanoatdani yanada rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Qog'ozlarni hozirgi kunda qancha turlari mavjud yoki qaysi qog'oz turlari hozirgi texnologiyalarga mos tushadi. Shu kabi ma'lumotlarni foydalanuvchi ushbu dasturiy vositadan olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yerda O'rmon xo'jaligi, yog'och va qog'oz Sanoatdani tarkibiy qismlarini tanlagan xolda o'ziga kerakli bo'lgan tarkibiy sanoat maxsulotini tanlagan xolda foydalanishi mumkin. Ular quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- ❖ Yog'ochni qayta ishlash Sanoatda;
- ❖ Qog'oz va qog'oz Sanoatda;
- ❖ O'rmon kimyo Sanoatda;
- ❖ Qurilish materiallari Sanoatda;
- ❖ Shisha va chinni Sanoatda.

Raqamli xizmatlar bozori hamda marketpleyslardan foydalanish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, butun dunyo bo'ylab yetkazib beruvchilar va xaridorlarni bog'laydigan savdo kanali bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hozirgi vaqtda jahon iste'mol tovarlari savdosining qariyb 12 foizi xalqaro raqamli xizmatlar bozori orqali amalga oshirilib kelinmoqda va bu ko'rsatkich doimiy ravishda o'sib bormoqda. Demak ushbu rivojlanishlar asnosida respublikamizda ham electron tijorat jadal suratlarida rivojlanib bormoqda bularni bir nechta misollar sifatida ko'rishimiz mumkin. Xususan zoodmall.uz, olcha.uz, texnomart.uz, alishop.uz, uzum.uz, abad.uz, alibazar.uz, alifshop.uz, allgood.uz, altech.uz, aynimo.uz, babycenter.uz, banafa.uz kabi raqamli xizmatlar bozori bilan shug'ullanuvchi portallarni keltirish mumkin. Portalda ishlab chiqarish subyektimizda mebellarning turlari, o'lchamlari, narxlari va eng asosiysi tashqi va ichki ko'rinishi mebellarning yasash jarayonlaridan video lavhalar va mebellar tayyorlash uchun ishlatiladigan xom-ashyo materiallari haqida batafsil ma'lumotlar joy olgan. digitalgreen-industry.uz.uz tijorat portali orqali real vaqt rejimida mebellarni onlayn xarid qilish imkoniyati mavjud. Bunda xaridor o'zi istagan mebelni savatga joylashtirish va buyurtma berish yoki xarid qilish orqali sotib olishi mumkin. Portalning yana bir asosiy qulayliklaridan biri shundaki portalda to'g'ridan to'g'ri mebel buyurtma berish mumkin. Bunda buyurtmachi tomonidan o'zi istagan mebelni oddiy foto surati va o'lchamlari yoki

mebel bo'yicha aniq tafsilotlarni portalga anketa ko'rinishida to'ldirib mebel rasmi bo'lsa Rasmini ilova qilgan holda yuborish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, biznes axborot bazalarining samarali rivojlanishi mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Axborot bazasi biznes jarayonlarini optimallashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va investitsiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli xizmatlar bozorini prognozlash metodologiyasining to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi bozorning kelajakdagi tendensiyalarini aniqlash, risklarni baholash va raqamli transformatsiyani samarali boshqarishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, biznes axborot bazasini rivojlantirish va raqamli xizmatlar bozorini prognozlashning zamonaviy metodologiyalarini qo'llash mintaqa sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, 2021–2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy sanoat va raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2022.
4. World Bank. World Development Report 2023: Digitalization for Inclusive Growth. – Washington, DC, 2023.
5. UNCTAD. Digital Economy Report 2022: Value Creation and Capture. – Geneva, 2022.